

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MURZAYEVA SHAXLO BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDAGI MILLIY MADANIY MARKAZLARNING
MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI**
(qirg‘iz, qozoq, tojik, turkman madaniy markazlari misolida)

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 323.15:061.2(575.1):008(1/8)

KBK: 66.3/5(5O‘zb)

M-96

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Political Sciences**

Murzayeva Shaxlo Baxtiyorovna

O‘zbekistondagi milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni (qirg‘iz, qozoq, tojik, turkman madaniy markazlari misolida)..... 3

Мурзаева Шахло Бахтиёровна

Роль национальных культурных центров Узбекистана в укреплении регионального сотрудничества (на примере кыргызских, казахских, таджикских, туркменских культурных центров)..... 23

Murzaeva Shakhlo Bakhtiyarovna

The role of national cultural centers in Uzbekistan in strengthening regional cooperation (on the example of Kyrgyz, Kazakh, Tajik, Turkmen cultural centers) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 49

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MURZAYEVA SHAXLO BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDAGI MILLIY MADANIY MARKAZLARNING
MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI**
(qirg‘iz, qozoq, tojik, turkman madaniy markazlari misolida)

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ss548 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti veb-sayti <https://tsuos.uz> hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uzda joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sirojov Oybek Ochilovich
siyosiy fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Farxod Erkinovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+998-71) 233-34-24, Faks: (+998-71) 233-52-24, e-mail: info@tsuos.uz, Tdshu@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+998-71) 233-34-24, Faks: (+998-71) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "___" _____ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

O.I. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Yovqochev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashuv jarayonlarining murakkab va ko'p qirrali rivojlanishi, mintaqaviy va transchegaraviy aloqalarning chuqurlashuvi hamda zamonaviy tahdidlarning kuchayishi sharoitida davlatlar o'rtasidagi barqaror hamkorlikni ta'minlash xalqaro munosabatlar tizimida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, madaniyat va millatlararo munosabatlar sohasidagi institutsional mexanizmlarni ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dunyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish madaniy muloqot va millatlararo munosabatlarning dolzarbligi qonunchilik va siyosiy tashabbuslarda ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda Markaziy Osiyo kabi tarixiy, etnik va madaniy jihatdan boy mintaqamamlakatlari o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni rivojlantirish, qo'shni davlatlar xalqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash ayniqsa muhimdir. Milliy madaniy markazlarning faoliyati ushbu jarayonlarda muloqot maydonini yaratish, urf-odat va an'analarni umuminsoniy qadriyatlar sifatida tan olishda muhim o'rin tutadi. Mintaqa davlatlari hamkorligining bugungi va ertangi siyosiy istiqboli ko'p jihatdan barqaror millatlararo munosabatlar tizimini shakllantirish va bu jarayonni muntazam ilmiy tadqiq etib borishni talab etmoqda.

Bu jarayonda O'zbekiston ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatga ega davlat sifatida millatlararo totuvlikni ta'minlash, ijtimoiy birlashuvni mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikni kuchaytirish maqsadida izchil davlat siyosatini olib bormoqda. Ular mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning madaniy, til va an'anaviy ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, ularni milliy qadriyatlar asosida jamiyatga uyg'unlashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 157 ta milliy-madaniy markaz, 42 ta do'stlik jamiyati va xorijdagi 100 dan ortiq vatandoshlar jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizda do'stlik va bag'rikenglik muhiti, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini mustahkamlash, chet ellar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalar, xalq diplomatiyasini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ko'plab ijobiy natijalarga erishmoqda"¹.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son), "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son), "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017-yil 19-maydagi PF-5046-son), "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 19-martdagi PF-52-sonli farmonlari, 2017-yil 23-maydagi "O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2993-sonli, 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 29.07.2025. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8345> (Murojaat sanasi: 15.09.2025)

PQ-4038-sonli, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 264-son qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyoda davlatlararo va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalari, avvalo, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari ², davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga oid konseptual g‘oyalari³ hamda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik doirasidagi shartnomalar, memorandumlar, yo‘l xaritalari muhim asos hisoblanadi. Ushbu manbalar tadqiqot ishiga nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan milliy madaniy markazlar faoliyati va mintaqaviy hamkorlik masalasini o‘zbekistonlik soha mutaxassislari, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va Markaziy Osiyo doirasidagi tadqiqotlar, shuningdek, xorijiy olimlarning izlanishlarini tasniflash maqsadga muvofiq. Jumladan, birinchi guruhga siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan mintaqa geosiyosati, mintaqadagi hamkorlik, millatlararo munosabatlar masalalari doirasida tadqiqot olib borgan S.Safoyev, R.Alimov, Sh.Arifxanov, I.Boboqulov, S.Otamuratov, S.Jo‘rayev, A.Muminov, N.Nazarov, O.Sirojov, S.Saidolimov, K.Abdurazakovalarni ⁴ kiritishimiz mumkin. Mintaqadagi millatlararo munosabatlar tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganilayotgan masalalarga yondashgan R.Murtazayeva, X.Yunusova, D.Bobojonova, O.Musayev, G‘.Mirzayev, S.Davlatova, Sh.Sharipov, X.Xusanovlarning tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin. Sotsiologik va kulturologik yondashuv doirasida tadqiqot olib borgan. G.Nadjimov, K.Normatov, F.Is‘hoqov, R.Nurillin, A.Mavrulov, K.Mira‘zamov, Z.Yusupov, I.Saidov, Sh.Hayitov, L.Xoliqovlar ⁵ keng qamrovli ilmiy ishlar olib borgan.

Ikkinchi guruhga MDH va Markaziy Osiyo mintaqasi olimlari, jumladan, A.Kazansev, P.Sigankov, A.Knyazev, S.Kushkumbayev, Ye.Seylexanov, I.A.Kaliyev, M.T.Laumulin, A.Orsariyev, M.Suyunbayev va D.Uzbekov, G.Maytdinovalarning ⁶ tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ularning ilmiy ishlarida madaniy markazlarning mintaqaviy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri, shuningdek, ular orqali madaniyatlararo aloqalar va o‘zaro tushunishni rivojlantirish masalalari keng muhokama qilingan.

² Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993-2016.

³ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

⁴ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

⁵ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

⁶ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

Uchinchi guruhga xorijiy sharq olimlaridan Y.Wang, M.Liang, L.Yang, X.Tang, F.Takahashi, U.Kalelioglu, O.Girit Heck, E.O'zgun, A.Malek, S.Tabasi va N.Marzouk ⁷ kabilar milliy ozchilik, milliy madaniy markazlar faoliyati, MMMLarning huquqiy va institutsional jihatlarini, diasporalarning siyosiy jarayonlarga ta'siri borasida tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, xorijiy g'arb olimlaridan esa Ch.Tili, D.L.Styuart, K.Stenland, D.Pfayfer, L.Patton, E.Hobsbaum, E.Hall, L.Feng, B.Eriksson, P.Bogen, G.Xofstede, M.Kamrava, B.Eschment, T.Sutormina, D.Binichilar⁸ kabilarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan hamkorlikni mustahkamlash mexanizmi sifatida madaniy diplomatiya va xalq diplomatiyasi mexanizmi sifatida milliy madaniy markazlarning institutsional funksiyalari siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan mukammal o'rganilmagan. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo mintaqasida davlatlararo aloqalar va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga doir muhim siyosiy jihatlar bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borishda mazkur dissertatsiya muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot ishi Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o'рни va ahamiyatiga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"milliy madaniy markaz" tushunchasining nazariy-metodologik asoslari hamda sohaga oid konseptual yondashuvlarni ochib berish;

Milliy madaniy markazlar va mintaqaviy hamkorlikning o'zaro bog'liqligi hamda o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish;

O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarning shakllanishi, rivojlanishi tendensiyalari hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlari, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini o'rganish;

Markaziy Osiyoda hamkorlikni rivojlantirishda milliy madaniy markazlarning erishgan natijalari va imkoniyatlarini tahlil qilish;

Milliy madaniy markazlarning muammolari, millatlararo totuvlikni ta'minlashda mintaqaviy integratsiya drayveri sifatidagi istiqbollari, faoliyat samaradorligi hamda natijadorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyektini O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarning faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistondagi turli milliy madaniy markazlarning mintaqada hamkorlikni mustahkamlashdagi o'рни va bu yo'nalishdagi faoliyatlari rivojlantirish mexanizmlari tashkil qiladi.

⁷ Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁸ Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada institutsional, tizimli, siyosiy-qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tarixiylik, rasmiy hujjatlarning kontent tahlili, siyosiy prognozlash, event tahlili, shuningdek, intervyu singari usullardan ham foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qirg'iz, qozoq, tojik va turkman madaniy markazlarining O'zbekistondagi faoliyati qo'shni xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni saqlash, tarixiy umumiylikni targ'ib etish, stereotiplarni yumshatish, transchegaraviy do'stlik aloqalarini rivojlantirish va Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik omil ekanligi, milliy madaniy markazlar mintaqaviy hamkorlikning institutsional-diplomatik tizimiga yumshoq kuch sifatida faoliyat yurituvchi omil ekanligi "yumshoq ijtimoiy infratuzilma" konsepsiyasi asosida dalillangan;

O'zbekistondagi qozoq milliy madaniy markazlari til, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va madaniy diplomatiya orqali davlatlararo madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga, qirg'iz milliy madaniy markazlari ko'chmanchi madaniyat, an'anaviy qadriyatlar va yoshlar bilan ishlash asosida avlodlararo madaniy uzviylikni ta'minlashga, tojik milliy madaniy markazlari til-adabiyot va madaniy merosni rivojlantirish orqali tarixiy-madaniy yaqinlikni mustahkamlashga, turkman milliy madaniy markazlari esa etnografik meros, milliy urf-odatlar, sport musobaqalari va madaniy tadbirlar vositasida xalq diplomatiyasini rivojlantirishga xizmat qilayotgani ilmiy jihatdan isbotlangan;

Qozog'istonda "Qozog'iston xalqlar assambleyasi" etnik guruhlar manfaatlarini davlat siyosati darajasida ifodalovchi mexanizm sifatida shakllangani, Qirg'izistonda milliy madaniy markazlar fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikka tayangan ijtimoiy faollik modelini namoyon etayotgani, Tojikistonda ushbu yo'nalish etnomadaniy merosni saqlashga qaratilgan madaniy siyosat bilan ajralib turishi, Turkmanistonda esa madaniy markazlar milliy meros va davlat madaniy siyosati doirasida faoliyat yuritayotgani ilmiy jihatdan aniqlangan;

Milliy madaniy markazlar faoliyatini mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirishda ularning madaniy tadbirlar, til va an'ana targ'iboti, yoshlar almashinuvi, ilmiy-ma'rifiy uchrashuvlar hamda OAV va raqamli platformalardagi ishtiroki orqali norasmiy diplomatik ta'sir imkoniyatlaridan foydalanish, uning xalqlararo muloqot, madaniy almashinuv, yoshlar hamkorligi va mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish ilgari surilib, O'zbekistondagi qirg'iz, qozoq, tojik va turkman milliy madaniy markazlari ishtirokida "Markaziy Osiyo milliy madaniy markazlari hamkorlik platformasi"ni shakllantirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o'rnini samarali tashkil etish mexanizmlari ishlab chiqilgan, u orqali milliy qadriyatlarni saqlash, etnik hamjihatlikni ta'minlash va mintaqaviy barqarorlikka ko'maklashuvchi madaniy aloqalarni rivojlantirish texnologiyalari takomillashtirilgan;

Milliy madaniy markazlar orqali davlat va jamoat tashkilotlarining mintaqadagi xalqlar bilan hamkorlik faoliyatini kengaytirish hamda rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Milliy madaniy markazlar faoliyatiga yoshlarni faol jalb qilish va ular o'rtasida mintaqaviy madaniy hamkorlikni kuchaytirish hamda rivojlantirish uchun amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi va ishonchliligi olingan ilmiy xulosalarning xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingani, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan mahalliy hamda nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgani bilan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi hamda ularning tegishli tashkilotlar tomonidan ma'qullanib, joriy etilgani tadqiqotning amaliy ahamiyati va ilmiy qiymatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan O'zbekiston milliy madaniy markazlarining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy madaniy hamkorlik jarayonlaridagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish orqali ushbu sohaning nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda madaniy diplomatiya, etnik hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlik sohalari uchun yangi ilmiy g'oyalar ilgari surilgan bo'lib, ular mintaqaviy madaniy integratsiya jarayonlarini o'rganishga doir tadqiqotlar uchun asos bo'ladi. Shuningdek, ushbu natijalar yoshlar bilan ishlashda va madaniy hamkorlikni rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni yangi ilmiy platformalar orqali tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotda ilgari surilgan natijalar amaliy jihatdan davlat tashkilotlari, milliy madaniy markazlar, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar faoliyatida qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning natijalari, undagi ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilishi bo'yicha quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

Milliy madaniy markazlar faoliyatini mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirishda ularning madaniy tadbirlar, til va an'ana targ'iboti, yoshlar almashinuvi, ilmiy-ma'rifiy uchrashuvlar hamda OAV va raqamli platformalardagi ishtiroki orqali norasmiy diplomatik ta'sir imkoniyatlaridan foydalanish, uning xalqlararo muloqot, madaniy almashinuv, yoshlar hamkorligi va mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish ilgari surilib O'zbekistondagi qirg'iz, qozoq, tojik va turkman milliy madaniy markazlari ishtirokida "Markaziy Osiyo milliy madaniy markazlari hamkorlik platformasi"ni shakllantirish zarurati borasidagi ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan foydalanilgan (*TIVning 2026-yil 21-yanvardagi №16/25 sonli dalolatnomasi*). Natijada, vazirlik va idoralarga yuborilgan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Qirg'iz, qozoq, tojik va turkman madaniy markazlarining O'zbekistondagi faoliyati qo'shni xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni saqlash, tarixiy umumiylikni targ'ib etish, stereotiplarni yumshatish, transchegaraviy do'stlik aloqalarini rivojlantirish va Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik omil ekanligi, milliy madaniy markazlar mintaqaviy hamkorlikning institutsional-diplomatik tizimiga yumshoq kuch sifatida faoliyat yurituvchi omil

ekanligi “yumshoq ijtimoiy infratuzilma” konsepsiyasi asosida dalillanganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasining Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasining Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasining 2025-yil 7-noyabrdagi №37-02-14/937-sonli dalolatnomasi*). Natijada, sohaga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlash hamda axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga xizmat qilgan.

Qozog‘istonda “Qozog‘iston xalqlar assambleyasi” etnik guruhlar manfaatlarini davlat siyosati darajasida ifodalovchi mexanizm sifatida shakllangani, Qirg‘izistonda milliy madaniy markazlar fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikka tayangan ijtimoiy faollik modelini namoyon etayotgani, Tojikistonda ushbu yo‘nalish etnomadaniy merosni saqlashga qaratilgan madaniy siyosat bilan ajralib turishi, Turkmanistonda esa madaniy markazlar milliy meros va davlat madaniy siyosati doirasida faoliyat yuritayotgani borasidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston qozoq milliy madaniy markazi tomonidan foydalanilgan (*O‘zbekiston qozoq milliy-madaniy markazining 2025-yil 7-oktabrdagi №018/064-sonli dalolatnomasi*). Natijada, vazirlik va idoralarga yuborilgan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekistondagi qozoq milliy madaniy markazlari til, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va madaniy diplomatiya orqali davlatlararo madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga, qirg‘iz milliy madaniy markazlari ko‘chmanchi madaniyat, an’anaviy qadriyatlar va yoshlar bilan ishlash asosida avlodlararo madaniy uzviylikni ta’minlashga, tojik milliy madaniy markazlari til-adabiyot va madaniy merosni rivojlantirish orqali tarixiy-madaniy yaqinlikni mustahkamlashga, turkman milliy madaniy markazlari esa etnografik meros, milliy urf-odatlar, sport musobaqalari va madaniy tadbirlar vositasida xalq diplomatiyasini rivojlantirishga xizmat qilayotgani borasidagi ilmiy xulosalaridan Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi faoliyatida foydalanilgan (*Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazining 2025-yil 27-oktabrdagi №582/25-sonli dalolatnomasi*). Natijada, tadqiqotda ilgari surilgan ma’lumotlar tashkilot faoliyatidagi tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 7 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 6 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o'rnini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlik jarayonlaridagi o'rni va ahamiyatining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Fikrimizcha, madaniy markazlar millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali madaniy almashuvlar kengayib, diplomatik munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, madaniy markazlar mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida ko'riladi. Bobda ushbu jarayonlarning nazariy asoslari, asosiy yo'nalishlari va ularning mintaqaviy barqarorlikka qo'shadigan hissasi yoritib beriladi.

Milliy madaniy markazlarni o'rganishda ularning faoliyatini kompleks va tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, markazlarning asosiy vazifasi - ona tilini, milliy an'analar va madaniyatni saqlash, tiklash hamda respublikada millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdir. Jamoat birlashmalari sifatida milliy madaniy markazlar o'z milliy madaniyatini rivojlantirib, yosh avlodni barcha millat va elatlarning madaniy boyliklariga hurmat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shadi. Ushbu markazlar millatlararo muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va madaniy boyliklarni asrash kabi vazifalarni bajaradi. Milliy madaniy markazlar jamiyatning muhim ijtimoiy-madaniy institutlari sifatida murakkab va ko'p qirrali funksiyalarni bajarar ekan, ularning faoliyatini tadqiq etishda ilmiy asoslangan bir nechta nazariy konseptual yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiqdir:

Madaniy yondashuv doirasida milliy madaniy markazlar etnik madaniyatni saqlash va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'riladi. Masalan, qozoq, tojik, turkman va qirg'iz milliy madaniy markazlari nafaqat xalqlar o'z madaniyatini saqlashga xizmat qiladi, balki bu madaniyatni yoshlar orasida ommalashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Milliy raqslar, qo'shiqlar, milliy bayramlar va an'analar orqali etnik guruhlar o'zining madaniy merosini avlodlarga yetkazadi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, xalqning o'zligini anglashga, o'z an'analari va qadriyatlariga hurmatni saqlab qolishga yordam beradi⁹.

Sotsiologik yondashuv milliy madaniy markazlarni jamiyatdagi turli etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy institut

⁹ Иофе В.Г. Национально-культурные центры тюркских народов в независимом Узбекистане и их место в духовной жизни республики // Вестник ХГУ им. Н.Ф.Катанова. 2016. №16. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/natsionalno-kulturnye-tsentry-tyurkskih-narodov-v-nezavisimom-uzbekistane-i-ih-mesto-v-duhovnoy-zhizni-respubliki>

sifatida tahlil qiladi. O'zbekiston - ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat va shuning uchun ham milliy madaniy markazlar turli etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu markazlar xalqlarning o'zaro hamjihatligini mustahkamlashda katta sahna bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologik yondashuv doirasida P.Suleymanova, E.Abdullayeva, N.Seytimbetovalar milliy madaniy markazlarni jamiyatning bir qismi sifatida o'rganadi. Bu yondashuv doirasida markazlarning jamiyatdagi integratsiya jarayonlariga ta'siri va turli etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashdagi rolini o'rganiladi. Milliy madaniy markazlar etnik guruhlarining bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lishiga yordam beradi, shu jumladan, ularning o'zaro tushunishini va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Madaniy-tarixiy yondashuv milliy madaniy markazlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishini o'rganishga yo'naltirilgan. Bu yondashuvga ko'ra, har bir madaniy markaz muayyan tarixiy jarayonlar natijasida paydo bo'ladi va uning rivojlanishi tarixiy vaziyatlarga bog'liq. Madaniy-tarixiy yondashuv milliy madaniy markazlarning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy kontekstda o'rganishga qaratilgan nazariy usuldir. Bu yondashuvga ko'ra, har bir madaniy markaz muayyan tarixiy sharoitlarda, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar tufayli paydo bo'ladi va faoliyati bu jarayonlarning bevosita natijasi sifatida qoraladi. Markaziy Osiyodagi milliy madaniy markazlar tarixi va ularning rivojlanish bosqichlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Qiyosiy-madaniy yondashuv etnik guruhlar o'rtasidagi madaniy almashinuv va muloqot jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Unga ko'ra, milliy madaniy markazlar turli etnik guruhlar o'rtasida madaniy hamkorlikni rivojlantiruvchi platforma vazifasini bajaradi. Bu yondashuv milliy madaniy markazlarning madaniy almashinuv jarayonlaridagi rolini tahlil qiladi va ularning millatlararo madaniy muloqotga qo'shgan hissasini ochib beradi. Qiyosiy-madaniy yondashuvda milliy madaniy markazlarni tadqiq etishdagi muhim konsepsiyadir, u turli millatlar va etnik guruhlar orasidagi madaniy almashinuvlarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuv, madaniyatlarning o'zaro ta'sirini, ijtimoiy almashinuv jarayonlarini va turli millatlarning madaniy farqlarini aniqlashda foydalaniladi.

O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarni nazariy jihatdan tadqiq etishda multikulturalizm, madaniy identiklik va instrumentalizm nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Multikulturalizm nazariyasi. Multikulturalizm siyosiy-nazariy paradigma sifatida jamiyatda mavjud etnik, madaniy va til xilma-xilligini tan olish, ushbu xilma-xillikni institutsional mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlash hamda uni umumfuqarolik birdamligi va siyosiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilgari suradi. Ushbu yondashuv doirasida madaniy plyuralizm ijtimoiy parokandalik yoki parchalanish manbai sifatida emas, balki jamiyatning moslashuvchanligi, ijtimoiy kapitali va mintaqaviy hamkorlik salohiyatini oshiruvchi strategik resurs sifatida talqin etiladi.

Multikulturalizm nazariyasining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan Uill Kimlika etnik guruhlarining madaniy huquqlarini tan olish demokratik davlatlarning qonuniyligi va uzoq muddatli barqarorligi uchun zarur shart ekanligini asoslab beradi. Kimlikaning fikricha, madaniy institutlar, jumladan milliy madaniy markazlar,

ozchilik guruhlarining siyosiy va ijtimoiy hayotga inklyuziv integratsiyasini ta'minlab, ularning madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish imkonini beradi¹⁰. Ushbu yondashuv O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qirg'iz, qozoq, tojik va turkman milliy madaniy markazlarining institutsional mohiyatini, ularning ijtimoiy integratsiyadagi o'rini hamda mintaqaviy hamkorlikdagi vazifasini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar nafaqat ichki millatlararo totuvlikni ta'minlovchi, balki qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan jamiyatlararo madaniy aloqalarni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi.

Madaniy identiklik nazariyasi. Madaniy identiklik nazariyasi madaniyatni nafaqat an'analar va urf-odatlar to'plami, balki ijtimoiy munosabatlar, siyosiy diskurslar va institutlar orqali shakllanadigan dinamik ijtimoiy tuzilma sifatida talqin etadi. Shu munosabat bilan, Styuart Xoll madaniy identiklikni tarixiy xotira, umumiy tajribalar va diskursiv amaliyot mahsuli sifatida talqin qiladi va uning uzluksiz qayta yaratilishini ta'kidlaydi. Xollning yondashuvi milliy madaniy markazlarni "madaniy saqlanish obyektlari" sifatida emas, balki madaniy o'ziga xoslikni qayta ishlab chiqaruvchi va ijtimoiylashtiruvchi muassasalar sifatida tushunishga imkon beradi.

Ushbu nazariy yondashuvni O'zbekistondagi qirg'iz, qozoq, tojik va turkman milliy madaniy markazlari faoliyatiga qo'llaydigan bo'lsak, bu markazlar etnik o'ziga xoslikni saqlagan holda, uni fuqarolik va mintaqaviy o'ziga xosliklar bilan uyg'unlashtiradigan ko'p qatlamli identifikatsiya modelini shakllantirayotganini kuzatish mumkin. Bu holat madaniy identiklik nazariyasida ilgari surilgan "ko'p o'ziga xosliklar" tamoyiliga to'la mos keladi.

A. Acharya tomonidan taklif etilgan "mintaqaviy identiklik va me'yoriy yaqinlik" konsepsiyasi ham ushbu masalani chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Acharyaning fikricha, rasmiy davlat institutlari bilan bir qatorda norasmiy va yarim institutsional madaniy tuzilmalar mintaqaviy integratsiyaning barqarorligini ta'minlaydi¹¹. O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy madaniy makonni shakllantirishga hissa qo'shadigan "quyidan yuqoriga" integratsiya mexanizmlari sifatida faoliyat yuritadi. Bu borada qirg'iz, qozoq, tojik va turkman madaniyat markazlari faoliyatini nafaqat millatlararo totuvlikni ta'minlash, balki mintaqaviy madaniy diplomatiya, chegaralar oshirib ijtimoiy muloqot va uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik ijtimoiy institutlar sifatida baholash mumkin.

Instrumentalizm nazariyasi. Ko'p millatli jamiyatlardagi siyosiy jarayonlarda etnik va madaniy institutlarning rolini tahlil qilishda instrumentalizm nazariyasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv etnosni azaliy yoki o'zgarmas ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki muayyan siyosiy, institutsional va ijtimoiy manfaatlar doirasida shakllanadigan va boshqariladigan tuzilma sifatida talqin etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistondagi qirg'iz, qozoq, tojik va turkman

¹⁰ W. Kymlicka. Multicultural odysseys: Navigating the new international politics of diversity. Oxford University Press. 2024. – P.52.

¹¹ A. Acharya How ideas spread: Whose norms matter? Norm localization and institutional change in Asian regionalism. International Organization, 58(2), 2021. pp. 239–275.

milliy-madaniy markazlari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash jarayonida muhim institutsional vosita vazifasini o'tamoqda.

Siyosatshunoslikda instrumentalizm nazariyasining asoschilari orasida Pol R. Brass etnik o'ziga xoslikni siyosiy elitalar va davlat institutlari tomonidan safarbar etiladigan resurs sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, siyosiy barqarorlikni ta'minlash yoki muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun etnik ramzlar, madaniy institutlar va tarixiy rivoyatlar ongli ravishda qayta talqin etiladi¹². Bu yondashuv O'zbekistondagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini turli tashqi kuchlarning vositasiga aylanib qolmasligi, millatlararo munosabatlarga rahna soluvchi yod va destruktiv g'oyalarni ilgari surmasligi uchun amalga oshiriladigan monitoring harakatlar mexanizmini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlarning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston milliy madaniy markazlari nafaqat milliy o'zlikni asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratildi. MMMning taraqqiyoti mamlakatning madaniy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor, infratuzilmaviy yangilanishlar va xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayishi MMMning jamiyatdagi rolini yanada oshirmoqda. MMM o'z faoliyati orqali madaniy merosni asrab-avaylash, yosh avlodni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish va madaniy diplomatiyada faol ishtirok etish uchun samarali mexanizmlarni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, MMM mamlakatda turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish va hamkorlikni mustahkamlashda muhim katalizator vazifasini o'taydi. Turli etnik guruhlarining milliy bayramlarini, urf-odatlarini va san'at namunalarini ommalashtirish orqali madaniy birdamlikni kuchaytirmoqda. Ushbu jarayon nafaqat mamlakat ichida, balki mintaqaviy va xalqaro hamkorlik uchun ham muhim platforma yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi va faoliyatining taraqqiyot yo'lini quyidagi bosqichlarda ajratib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. O'zbekistondagi MMMlarning shakllanish bosqichi (1980-yillar oxiri - 1992-yillar). Milliy madaniy markazlarning shakllanish davri O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar va aholining madaniy ehtiyojlarining ortishi bilan uzviy bog'liq. Ushbu davrda turli etnik guruhlar o'z milliy madaniyatini, tilini va an'analarini saqlab qolishga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surishni boshladilar.

2. O'zbekistondagi MMMlarning institutsionallashuv bosqichi (1992 - 2000-yillar). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy madaniy markazlarning institutsional rivojlanish davri boshlandi. Bu davr davlat tomonidan milliy madaniyatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Bu davrda milliy madaniy markazlar mamlakatning

¹² P.R.Brass. Ethnic groups and the state. London: Routledge. 2024. – P.99-103.

ijtimoiy-siyosiy tizimida mustaqil institut sifatida shakllandi va ularning faoliyati huquqiy asosga ega bo'ldi.

3. O'zbekistondagi MMMlarning integratsiyalashuv bosqichi (2000-2017 yillar). 2000-yillardan boshlab, milliy madaniy markazlar o'z faoliyatida yangi bosqichga o'tdi, bu davr integratsiya va barqarorlikni ta'minlash jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda markazlarning asosiy vazifasi nafaqat milliy madaniyatlarni saqlash, balki ularni jamiyatning keng qatlamlari va xalqaro hamjamiyat bilan integratsiya qilishga yo'naltirildi.

4. O'zbekistondagi MMMlarning innovatsion rivojlanish bosqichi (2017-yildan hozirgacha). 2017-yildan boshlab O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning rivojlanishi yangi bosqichga o'tdi, bu bosqich zamonaviy innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro madaniy hamkorlikni yanada kengaytirish bilan xarakterlanadi. Demak, O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning rivojlanishi jamiyatning madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda to'rt bosqichda kechdi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi shu kabi markazlardan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, O'zbekistonda MMMlarning faoliyati nisbatan erkin va mustaqil tarzda tashkil etilgan. Davlat ularni qo'llab-quvvatlasa-da, faoliyatiga bevosita aralashmaydi, bu esa markazlarga o'z dasturlarini ishlab chiqish va ijodiy tashabbuslarni amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Qolaversa, O'zbekistonda MMMlarning moliyalashtirish manbalari xilma-xil bo'lib, davlat byudjeti bilan bir qatorda, homiylik va xalqaro grantlarni ham jalb qilish imkoniyati mavjud.

Ikkinchidan, O'zbekistonda MMMlar milliy madaniyatni targ'ib qilish, madaniy merosni saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida katta yutuqlarga erishgan. Ular muntazam ravishda turli madaniy tadbirlar, festivallar, ko'rgazmalar va konsertlar tashkil etib, aholining madaniy hayotini boyitishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda MMMlarning xalqaro hamkorlik aloqalari ham keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ularga xorijiy tajribalarni o'rganish va o'z faoliyatiga tatbiq etish imkonini beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy madaniy markazlarning rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Davlat rahbariyati millatlararo hamkorlikni mustahkamlash va milliy o'zlikni saqlashga xizmat qiladigan bu markazlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababli, bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular orqali milliy madaniy markazlarga yanada keng imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsad qilingan.

Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan 2023-yilda qabul qilingan "Madaniyat va san'at sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (25-dekabr, PF-214-son) mamlakatda madaniy siyosatni zamonaviy

talablarga mos ravishda takomillashtirish yo'lida muhim hujjatlardan biridir¹³. Ushbu farmon madaniy merosni asrab-avaylash va milliy o'zlikni rivojlantirish masalalarini davlatning e'tibor markaziga qo'yib, milliy madaniy markazlarning faoliyatini yanada samarali qilishni ko'zda tutadi. Farmonda, xususan, milliy madaniy markazlarga zamonaviy infratuzilma yaratish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning xalqaro maydonda faol ishtirokini ta'minlash choralari belgilangan. Shu tariqa, bu hujjat orqali davlat milliy madaniy markazlarga xalqaro darajada o'z madaniy merosini tanitish uchun keng imkoniyatlar yaratishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar bir qator o'ziga xosliklarni namoyon qilmoqda. Xususan, O'zbekistondagi qirg'iz, qozoq, tojik va turkman milliy madaniy markazlari faoliyati har bir etnomadaniy guruhning tarixiy xotirasi, madaniy identikligi, til xususiyati va ijtimoiy faollik salohiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos funksional ixtisoslashuvga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, qozoq milliy madaniy markazlari til, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va madaniy diplomatiya imkoniyatlari orqali O'zbekiston hamda Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda faol subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qirg'iz milliy madaniy markazlari ko'chmanchi madaniyat elementlarini targ'ib qilish, an'anaviy qadriyatlarni saqlash va yoshlar bilan ishlash orqali avlodlararo madaniy uzviylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Tojik milliy madaniy markazlari til, adabiyot va ma'rifiy merosni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratib, O'zbekiston hamda Tojikiston xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlik, adabiy meros va ma'naviy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

Turkman milliy madaniy markazlari etnografik meros, milliy urf-odatlar, xalq amaliy san'ati va madaniy tadbirlar orqali qo'shnichilik munosabatlari hamda xalq diplomatiyasi aloqalarini kengaytiruvchi madaniy-kommunikativ institut sifatida shakllanmoqda. Mazkur holat milliy madaniy markazlarni etnik guruhlarining madaniyatini saqlovchi tuzilma, mintaqaviy hamkorlik, xalqlararo muloqot, ijtimoiy ishonch va madaniy yaqinlikni mustahkamlovchi yumshoq ijtimoiy infratuzilma elementi sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning **“O'zbekistonda milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida Markaziy Osiyo mintaqasi, asrlar davomida yagona madaniy, savdo-iqtisodiy va ma'naviy makon sifatida shakllangan bo'lib, uning hududida yashagan xalqlarning o'zaro munosabatlari, ayniqsa, madaniyat sohasida, doimiy rivojlanib kelganligi hamda hozirgi kunga kelib mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda milliy madaniy markazlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani masalasi tahlil qilinadi.

Ushbu bobda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlarning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati ijtimoiy-siyosiy, institutsional va madaniy-diplomatik yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Xususan, milliy madaniy markazlar nafaqat madaniy rang-baranglikni saqlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va ko'p millatli jamiyatda fuqarolik

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Madaniyat va san'at sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” (25-dekabr 2023-yil, PF-214-son). – Toshkent, 2023. – B. 22-25.

birdamligini ta'minlash, balki Markaziy Osiyo hududida mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish salohiyatiga ega bo'lgan muhim "yumshoq kuch" institutlari sifatida qaraladi. Biroq, ularning faoliyati asosan milliy darajadagi madaniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgani, chegaralararo va mintaqaviy hamkorlik nuqtai nazaridan tizimli va institutsionallashtirilgan shaklga ega emasligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, ushbu bobda milliy madaniy markazlar faoliyatidagi asosiy muammolar aniqlangan. Bular jumlasiga ularning mintaqaviy tarmoqlarga integratsiyalashuv darajasining pastligi, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi o'xshash muassasalar bilan barqaror hamkorlik mexanizmlarining yo'qligi, qo'shma madaniy dasturlar va loyihalarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, tashkiliy-me'yoriy asoslarning cheklanganligi kiradi. Bu holat milliy madaniy markazlarning mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish va jamiyatlararo muloqotni rivojlantirish borasidagi salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Mazkur masalalarni hal etish uchun tadqiqot milliy madaniy markazlar o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni institutsional asosda rivojlantirish, ularning faoliyatini nodavlat tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalari, davlat organlari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, qo'shma madaniy loyihalar, almashinuv dasturlari va raqamli platformalarni amalga oshirish orqali chegaralararo madaniy muloqotni mustahkamlash zarurligini ilmiy asoslaydi. Bunday yondashuv milliy madaniy markazlarning nafaqat madaniy institut, balki Markaziy Osiyoda barqaror mintaqaviy hamkorlikni ta'minlashga hissa qo'shuvchi ijtimoiy-institutsional mexanizm sifatidagi rolini oshirish imkonini beradi.

O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar, xususan, tojik, qozoq, turkman va qirg'iz madaniy markazlari, qo'shni davlatlar bilan umumiy madaniy boyliklarni targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaviy integratsiyaga katta hissa qo'shmoqda. Masalan, tojik madaniy markazlari orqali ikki davlat o'rtasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'zaro festivallar o'tkazish, Qirg'iziston bilan madaniy almashinuv doirasida qo'shma teatr sahnalari namoyishi yoki qozoq markazlarining umumiy tarixiy qahramonlarni qo'shma o'rganishi kabi tadbirlar amalga oshirilayotganini qayd etish mumkin¹⁴. Bu tadbirlar nafaqat madaniyatni saqlab qolish, balki ikki yoqlama ishonch va do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston milliy madaniy markazlar faoliyatida mavjud moliyalashtirish, kadrlar muammosi va milliy madaniy markazlar faoliyatini OAVlarda yoritish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga doir ko'plab fikr mulohazalar ilgari surildi.

Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy hamkorlikning ahamiyati milliy madaniy markazlar misolida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Ular o'zaro aloqalarni yanada jonlantirish uchun platforma vazifasini bajarib, umumiy manfaatlar doirasida ishonch va o'zaro hurmatni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Milliy madaniy markazlarning kelajakdagi faoliyati va dasturlari aynan shu maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi zarur, chunki madaniy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy integratsiya uchun ham muhim asos hisoblanadi.

¹⁴ Y.N.Sharifovna. Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(9), 2024. –P.113.

Ushbu bobda, shuningdek, O‘zbekiston milliy madaniy markazlarining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi faoliyatini takomillashtirish masalasini alohida ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida asoslash maqsadga muvofiq deb qaralgan. Xususan, milliy madaniy markazlar faoliyatini ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim tashkilotlari bilan tizimli integratsiya qilish ularning institutsional salohiyatini oshirish, ilmiy asoslangan tashabbuslarni ishlab chiqish hamda mintaqaviy hamkorlik jarayonlaridagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, milliy madaniy markazlar, universitetlar, ilmiy markazlar va ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida barqaror institutsional hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Madaniy almashinuv shakllari mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shakllar, jumladan, milliy madaniy festivallar, forumlar, ta‘limiy dasturlar, sport musobaqalari va boshqa madaniy tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ularning har biri o‘z maqsadiga ega bo‘lib, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va muloqotni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, milliy madaniy markazlar faoliyatini ommalashtirishda ko‘p tilli raqamli kommunikatsiya modelini qo‘llash zarurligi bilan izohlanadi. Milliy madaniy markazlar faoliyatiga oid axborotlarni o‘zbek tili bilan bir qatorda tegishli millat tili, rus tili va zarur hollarda ingliz tilida e‘lon qilish ularning kommunikativ qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, mamlakat ichidagi turli etnik guruhlar bilan samarali aloqalarni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, diaspora vakillari, xorijiy hamkorlar, xalqaro tashkilotlar va tashqi auditoriya bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

